

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA ALOQADORLIGINING NAZARIY ASOSLARI**

Otabek Abdug'aniyevich Yo'ldoshev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti,

"Tillar va maktabgacha ta'lim" yo'nalishi dekani, dotsent, p.f.f.d (PhD)

### **Annotatsiya:**

Boshlang'ich sinfda ijodiy faoliyatni tashkil etish, kichik maktab yoshidan o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini tarbiyalash, o'qishga qiziqishi, hissiy munosabatni shakllantirish texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan oqilona foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshadi. Texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan o'z o'rnda unumli foydalanib borilishi boshlang'ich sinf mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, sifat, ta'lim texnologiyalari.

Ilmiy manbalarda boshlang'ich sinf – o'quvchiga eng zarur va umumnazariy bilimlar beradigan hamda har bir narsaga ruhiy, axloqiy, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, atrofdagilarga nisbatan muhabbat va hurmatni uyg'otadigan o'rta ta'limning boshlang'ich darajasi bo'lib, atama 1802-yilda Fransiyada ilmiy muomalaga kiritilgan [2]. Biz bu kabi nazariyaga qisman qo'shilmagan holda kichik yoshdag'i bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonining texnogen sivilizatsiya sharoitida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda kompleks o'rgandik.

Jahon tajribasidan ma'lumki, insoniyat tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida texnogen sivilizatsiya jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilab bergen. Kishilik jamiyati taraqqiy etgan sari uning ta'sir doirasi kengayib, yangi sifat darajalariga ko'tarilgan. Ta'kidlash kerakki, texnogen sivilizatsiyaning globallashuvi, jumladan bir qator kompyuter texnikasi, mobil aloqa vositalari, internet tarmog'ining inson ongi ustidan hukmronlik qilishi kabi, kutilmagan salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Dunyon o'zgartirish va tabiatni insonga bo'ysundirish g'oyasi texnogen sivilizatsiyaning ilk davridan to hozirgi bosqichigacha ustuvor bo'lib kelgan va tevarak-atrofga bo'lgan bunday faol munosabat ijtimoiy munosabatlar sohasida ham o'z ifodasini topmoqda. Texnogen sivilizatsiya (texnogen jamiyat) – bu ijtimoiy taraqqiyotning industrial va industrial jamiyatdan keyingi bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy tizim [3]. Texnogen sivilizatsiya tushunchasiga o'tmishdan bugungi kunga qadar ko'plab tadqiqotchilar ta'rif berishga harakat qilganlar. Tadqiqotlarimiz davomida ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini ilmiy manbalar asosida sharhlab o'rgandik.

«Texnogen sivilizatsiya» yoki «texnokratizm» atamasi 1921-yilda sotsiolog olim Torsteyn Veblen tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan. T. Veblen o‘zining «muhandislar va narx tizimi» nomli asarida butun dunyodagi muhandislarning yer yuzidagi hayotini yaxshilash uchun barcha sa’y-harakatlarni birlashtirishning muhimligini ta’kidlagan [4].

Bizningcha, texnogen sivilizatsiya an’anaviy va mexanik xususiyatlarga ega. An’anaviy texnogen sivilizatsiya inson tomonidan qo’llanilishida mexanik xususiyatlarga ega bo‘lmagan barcha vositalar hisoblanadi. Mexanik texnogen sivilizatsiya bu davrlar almashinuvni natijasida inson qo‘li bilan yaratilgan mexanik xususiyatlarga ega barcha vositalar. Texnogen sivilizatsiyaning tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning tarixiy shakllanish bosqichlari quyidagilar: industrial jamiyatgacha bo‘lgan texnogen sivilizatsiya, industrial sivilizatsiya hamda postindustrial sivilizatsiya. *Qarang: 1-rasm.*



*2.-Rasm. Texnogen sivilizatsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari*

Texnogen sivilizatsiya – bu olimlarning shunchaki bir ermagи emas, balki jamiyatda mavjud savodsizlikni tugatish yo‘lidagi ko‘pgina ijtimoiy muammolarning hal etilishidir. Biz bu kabi ta’rifga tanqidiy nuqtai nazardan qaradik.

Zero, bu fikrni Sharq mutafakkiri Abu Nasr al Farobiy o‘n asr avval ta’kidlab o‘tgan edi. Uning fikricha: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yarning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi» [4], -deb uqtiradi Abu Nasr Forobiy. Bu tushuncha ilmiy jamoada tez ommalashdi va tarbiya asoslarining yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Insoniyat tarixida svilizatsiyalar ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Mashhur tarixchi va faylasuf A.Toynbi ana shunday svilizatsiyalarning yigirma bir turini aniqlab ta’rifladi. Ularning barchasini A.Toynbi svilizatsion rivojlanish turlariga ko‘ra ikkita katta qismga bo‘lgan:

1. An’anaviy svilizatsiyalar.
2. Texnogen svilizatsiyalar.

An'anaviy va texnogen sivilizatsiyalar bir-biridan keskin farq qilsada, o'zaro aloqadorlikda rivojlangan.

*An'anaviy sivilizatsiyada* ijtimoiy jarayonlar o'zgarish sur'ati evolyusion sekin kechib, vorisiylik xarakteriga egadir. Unda ta'lim-tarbiya jarayoni ajdodlar tajribasini jamlovchi an'analar, me'yorlar, fikrlash uslublariga ustuvorlik berilishi bilan alohida ajralib turadi. Vaqtin siklik idrok etishda davrlar almashinuvi nazarda tutilgan bo'lib, ibtidoiy jamaat tizimidan hozirgi tezkor axborot asrigacha bo'lgan vaqtida ta'lim-tarbiyaning bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, dunyoqarash dominantlarining barqarorligi bilan belgilangan. Bunda, asosan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitishda tafakkuriy dunyoqarashni rivojlantirish, ilm-bilimga munosabatni rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan. An'anaviy sivilizatsiyada boshqalar ustidan bir shaxsning to'g'ridan-to'g'ri kuch sifatida hukmronligi va hokimiyat uchun kurash korporativ tuzilmalarning shaxsga nisbatan ustuvorligi, yangi innovatsion g'oyalar va faoliyatning cheklovlarga ega ekanligini kuzatamiz.

*Texnogen sivilizatsiya* haqida bir qancha qarama-qarshi nazariyalar tamoyillar yaratilgan bo'lib, ular inson omilining shaxsiy erkinligi, taraqqiyoti, hayotining barcha sohalarida innovatsiyalar yaratishi va tez o'zgarishlarga moslashishga tayyorligi ekanligi ilmiy asoslangan [5]. Shu bois, biz texnogen sivilizatsiyani, hayot tarzi deya olamiz. Chunki, ilm-fan rivojidan ko'ra hech narsa muhim emas. Shu bilan birga texnologiyaning rivojlanishi ijtimoiy hayotdagi ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi o'zgarishlarga olib keladi. Jumladan, eng qadimgi (ibtidoiy davr) davrdan bugungi kompyuter asrigacha bo'lgan vaqtida jamiyatdagi texnogen o'zgarishlar nafaqat insonlarning turmush tarzi, balki ularning ma'rifati, ilmiy salohiyati va tafakkurining o'sishiga ham salmoqli ravishda hissa qo'shgan.

Texnogen sivilizatsiya davrlar silsilasi asosida bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab rivojlanib, yangi davrga kelib ma'rifat inqilobi boshlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan texnogen vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish yaxshi samara beradi. Kelajakda o'zlashtirgan dasturlardan foydalanib, o'quvchilarning to'laqonli o'zlashtirishi va ularni mashg'ulotga ko'proq qiziqtirishi mumkin, chunki bu dasturiy vositalar minimal xarajatlar bilan iloji boricha ko'proq ta'lim ma'lumotlarini olish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive end equitable quality, education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-27. May 2015, Incheon, and Republic of Korea). - 6 p. 26. Р.
2. Веднеева О.А., Савва Л.И. История педагогики: учебное пособие. –СПб: Наукомкие технологии, 2017. 373-с.
3. Веднеева О.А., Савва Л.И. История педагогики: учебное пособие. –СПб: Наукомкие технологии, 2017. 373-с.
4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: 1993. -Б. 83-184 б.
5. Демиденко Э.С. Техногенное общество // Глобалистика: Энциклопедия. -М.: 2003.

6. Арсланова, Г. Д. (2023). Диагностика личности младшего школьника. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(3), 297–301.
7. Арсланова, Г. Д. (2022). Особенности структуры и содержания базового учебника по предмету «воспитание» в начальных классах. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 124-131.
8. Арсланова, Г. Д. (2022). Практические методы и педагогические приёмы преподавания предмета «воспитание» в начальных классах. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 421-428.
9. Ташмухамедова, Г. Х. (2021). Медиацентр университета как база для создания нового цифрового контента. *Современное образование (Узбекистан)*, (2 (99)), 24-28.
10. Kaldibayeva, D. O. (2020). Talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik omillari. *Science and Education*, 1. *Special*, (3), 119.